XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-08, www.jarqorgon.uz

2022 - yil 18 - iyun VI-43-99-8-112-K/22 Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Ravshanova) zimmasiga yuklatilsin.

Jarqo‘rg‘on tuman hokimi **B.A.O'raqov**

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2022 yil 18 iyundagi
VI-43-99-8-112-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining 2016-yil 30-dekabrdagi 23/1-sonli Jarqo‘rg‘on tumanining 2016-yil mahalliy budjeti ijrosi va 2017-yil mahalliy budjeti asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining 2016-yil 30-dekabrdagi 23/3-sonli “2017-yil uchun aholi bandligi dasturi parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori.

3. Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining 2017-yil 31-dekabrdagi 35/2-sonli “Jarqo‘rg‘on tumanining 2018-yil mahalliy budjeti asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”gi qarori.

4. Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining 2018-yil 27-dekabrdagi 48/3-sonli “Jarqo‘rg‘on tumanining 2018-yil mahalliy budjeti ijrosi va 2019-yil mahalliy budjeti asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”gi qarori.

5. Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining 2019-yil 18-dekabrdagi 60/1-sonli “Jarqo‘rg‘on tumanining 2020-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

6. Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining 2020-yil 28-dekabrdagi 127/08-17-sonli “Jarqo‘rg‘on tumanining 2021-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.